

Extending these activities outside the classroom further enriches the learning experience, connecting it to real-life contexts and broader cultural understanding. By incorporating these engaging strategies, teachers can create an interactive and memorable learning environment that inspires students to actively participate and excel in their English language journey.

References

1. Even, S. (2008). Drama grammar: Towards a performative postmethod pedagogy. *TESL-EJ*, 11(4), 1–13.
2. Heathcote, D., & Bolton, G. (1995). *Drama for learning: Dorothy Heathcote's mantle of the expert approach to education*. Heinemann.
3. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign language classroom anxiety. *The Modern Language Journal*, 70(2), 125–132.
4. Kao, S.-M., & O'Neill, C. (1998). *Words into worlds: Learning a second language through process drama*. Ablex Publishing Corporation.
5. Miccoli, L. (2003). English through drama for oral skills development. *ELT Journal*, 57(2), 122–129.
6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
7. Wagner, B. J. (1998). *Educational drama and language arts: What research shows*. Heinemann.

EMOTSIONAL INTELLEKT VA SUN'IY INTELLEKT: TA'LIM JARAYONIDA INTEGRATSIYA

*Mardiyeva Zarifa Mirza qizi,
Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada emotsional intellekt va sun'iy intellektning ta'lim sohasida integratsiyasi qanday amalga oshirilayotgani va bu jarayonning samaradorligi haqida so'z yuritamiz. Maqola mazmuni emotsional intellekt va sun'iy intellektning alohida afzalliklarini ham muhokama qilishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *emotsional va sun'iy intellekt, emotsiya, raqamli texnologiyalar, robotlar, virtual o'qituvchilar, ta'limda integratsiya, mobil qurilma,*

Tilshunoslik va til o'qitish sohasida so'nggi yillarda katta o'zgarishlar yuz berdi. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va yangi pedagogik yondashuvlar til o'rganish jarayonini sezilarli darajada osonlashtirmoqda va samarali qilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimini tubdan o'zgartirayotgan bo'lsa, emotsional intellekt esa o'qitish va o'rganish jarayonida insoniy omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatmoqda.

“Intellekt” lotin tilidan olingan bo'lib, aql, idrok, zehn ma'nolarini anglatadi. Emotsional intellekt insonning bilish qobiliyati, fikrlash, anglash, tafakkur qilish salohiyatini belgilaydi. U ma'naviyatga yaqin bo'lib, insonning ruhiy-hissiy tuyg'usi, bilish qobiliyati va aql-zakovati, aqliy yetukligi va yuksaklikka intilishi bilan uyg'unlashadi.

Emotsional intellekt insonning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalarning his-tuyg'ulariga moslashish qobiliyatidir va bu hozirgi zamon uchun yangi tushuncha emas. 1930-

yillardayoq psixolog Edvard Torndayk “ijtimoiy intellekt” tushunchasini boshqa odamlar bilan til topisha olish qobiliyati deb ta’riflagan edi. Ta’lim jarayonida bu muhim ahamiyatga ega, chunki o’quvchilarning ruhiy holati va motivatsiyasi ularning bilim olish jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. Yuksak emotsional intellektga ega o’qituvchilar o’quvchilar bilan samarali muloqot qila oladi. Bundan tashqari, ularning qiyinchiliklarini tushunib, shaxsiy yondashuvni qo’llay oladi, o’quvchilarni ruhlantirish va stressini kamaytirishga yordam beradi.

Qolaversa, emotsional intellekt tabiatini ochish, boshqalarni tushunish madaniyatining oshishiga xizmat qilishi tabiiydir. Chunki aqliy qobiliyat va emotsional qobiliyatlar bir-biri bilan chambarchas bog’liqdir. Shaxsdagi emotsional kechinmalarning o’zgarishi, albatta, intellektual qobiliyatlarni ham o’zgarishiga olib kelishi mumkin. Ko’pchilik olimlar tomonidan ma’lum bir emotsiyalar insonlarning aqliy qobiliyatlarini oshishiga yoki kamayishi ta’sir ko’rsatishi isbotlangan. Inson o’z emotsiyalarini boshqara olishi uni jamiyatda o’z o’rnini topishida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan. Ayni vaqtda jahon standartlarida keng qo’llanib kelayotgan usul, rahbarlarni tayyorlash davomida zamonaviy rahbar modellarini inobatga olish, ham emotsional intellekt orqali amalga oshirilib kelinmoqda, shu sababli ham rahbar xodimlarini tushunishi va ularni rag’batlantirishi qanchalik muhim ekanligini e’tiborga olish lozim.

Ayni vaqtda, emotsional intellektga taqlid sifatida yaratilgan sun’iy intellekt haqida so’z yuritsak.

Sun’iy intellekt – tezkor hisoblash muhitida algoritmlar yaratish va qo’llash orqali insonning aql-idrok jarayonlariga taqlid qilishga asoslanadi. Sodda qilib aytganda, sun’iy intellekt kompyuterlarni odam kabi o’ylash va ulardek yechim topishga yo’naltirilgan texnologiyadir.

Bugungi kunga kelib **sun’iy intellekt** tushunchasi juda keng qamrovli tushunchaga aylanib bormoqda. Masalan, mobil qurilmangizdagi dasturlar: Google, lug’atlar, turli xil o’yinlar va hokazolar ham sun’iy intellektga yaqqol misol bo’la oladi. Zamonaviy sun’iy intellekt bu o’z atrof-muhitini idrok eta oladigan va o’z maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun harakat qila oladigan, ma’lumotlarni o’rganadigan va tahlil qiladigan tizimdir. Faqat hozirda ularning qamrovi kichikroq bo’lib, ma’lum bir yo’nalishdagina sizga yordam bera oladi. Ya’ni bajarmoqchi bo’lgan amallaringiz turiga qarab tegishli dasturdan foydalanasiz.

Sun’iy intellekt foydali bo’lishi uchun u qo’llanilishi kerak. Uning haqiqiy qiymati faqat amalda bo’ladigan ma’lumotlarni taqdim etganda amalga oshirilishi mumkin. Agar biz sun’iy intellektni inson miyasi nuqtai nazaridan o’ylaydigan bo’lsak, unda sun’iy intellekt texnologiyalari qo’llar, ko’zlar va tana harakatlariga o’xshaydi – bu bizga miya g’oyalarini hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

OpenAI loyihasi tomonidan ishga tushirilgan ChatGPT generativ sun’iy intellektdir. U matnli javoblarni yaratishda qo’l keladi va oddiy suhbatlardan tortib murakkab muammolarni hal qilishgacha bo’lgan turli xil yechimlarni taklif qila oladi. Quyida ChatGPT xususiyatlari haqida qisqacha:

ChatGPT’ning xususiyatlari:

- Ko’p tillarda suhbat qura olish: GPT nafaqat ingliz, balki boshqa tillarda ham suhbat qura oladi, tillar ro’yxatida o’zbek tili ham mavjud;
- Kreativ javob berish: ChatGPT kontent uchun takrorlanmas matnlar yoza oladi, ularga hatto hikoya va she’rlar ham kiradi;

▪ Kodlar bilan ishlay olish: Sun'iy ong dasturchilarga kodlari bilan ishlashda yordam berishi, kodlardagi xatolarni topishi, ularni formatlashi mumkin;

▪ Ma'lumot izlash: GPT o'zining kundan kunga kengayib borayotgan ma'lumotlar bazasi orqali siz izlayotgan narsani topib bera oladi.

Sun'iy intellekt va emotsional intellekt o'zaro uyg'unlashganda, ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi. Integratsiyaning asosiy jihatlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1) Emotsional tahlil qilish texnologiyalari – Sun'iy intellekt o'quvchilarning ovoz toni, mimikasi va xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning ruhiy holatini aniqlash va mos ta'lim yondashuvini taklif qilish imkonini beradi.

2) Moslashuvchan o'quv platformalari – Sun'iy intellekt har bir o'quvchining o'rganish tezligi va uslubini tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan dars materiallarini taqdim etishi mumkin.

3) Virtual o'qituvchilar va robotlar – Sun'iy intellekt asosida yaratilgan virtual o'qituvchilar emotsional elementlari bilan boyitilib, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularga emotsional jihatdan moslashish qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin.

Emotsional intellekt va sun'iy intellektning integratsiyasi ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish va insoniy omillarni inobatga olgan holda innovatsion ta'lim usullarini yaratish imkonini beradi. Kelajakda bu ikki yo'nalishning uyg'unlashuvi ta'lim tizimini yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Drigas AS, Papoutsi C. A new layered model on emotional intelligence. Behav Sci (Basel). 2018;8(5):45. doi:10.3390/bs8050045
2. Otamuratov R.U., O'rolov H., Rahimova S., Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari xalqaro ilmiy-texnik konfrensiya materiallar to'plami. 2022., - 476
3. Xo'Jamatova, X. (2022). Maktabgacha katta yoshli bolalarda ijtimoiy ongni shakllantish. science and innovation, 1(b4), 634-636
4. Toxirjon, U. (2024). Pedagogika va psixologiya o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganish. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
5. Murotmusaeu K.B., Rizaeva Sh., Yuldashev Sh.E., Leadership As an Effective Means in Management Activities., Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences., 2022 y 135 p.

METHODS OF TEACHING WRITING SKILL TO STUDENTS

*Muratbaeva Aynura Salamatovna, Student of KSU
Scientific advisor: Elza Erimbetova*

Abstract: *Writing is a fundamental skill that underpins academic success and effective communication. Teaching writing, however, presents unique challenges due to varying student proficiency levels and the complexity of the skill itself. This article explores a range of effective methods to teach writing skills to students, emphasizing strategies that address both technical and creative aspects of writing.*